G'anijon XUDOYEV

BOSHLANG'ICH G'IJJAK DARSLIGI

(Bolalar musiqa va san'at maktablarining I-II sinflari uchun darslik)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

G‘anijon XUDOYEV

BOSHLANG‘ICH G‘IJJAK DARSLIGI

(Bolalar musiqa va san’at maktablarining I-II sinflari uchun darslik)

“JAVOHIR-ILM-NASHR”
Toshkent-2024

UO‘K 780.6.08
KBK 85.952
X 98
G‘anijon XUDOYEV
Boshlang‘ij g‘ijjak darsi /darslik/ T: “JAVOHIR-ILM-NASHR”,– 2024, 132 b

Mazkur darslik O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Respublika madaniyat muassalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazi tomonidan tasdiqlangan Bolalar musiqa va san’at maktablarining I-II sinflari uchun ishlab chiqilgan o‘quv dasturi asosida tayyorlandi. Shuningdek, muallifning 2015-yilda nashr etilgan “Boshlang‘ich g‘ijjak saboqlari” o‘quv qo‘llanmasining to‘ldirilgan va qayta ishlangan nashri hisoblanadi.

Muallif “Boshlang‘ich g‘ijjak darsligi” kitobini o‘n bitta dars kesimida quyidagicha yoritib bergan. Jumladan, kirish qismida g‘ijjak cholg‘usining qisqacha tarixi, nazariy qismida boshlang‘ich musiqa saboxonligi, metodik qismida g‘ijjakning tuzilishi, g‘ijjak qismlarining nomlanishi, torlarning sozlanishi, g‘ijjakni ijro qilishda kamonni to‘g‘ri ushlash, g‘ijjak cholg‘usida ijro etish holati, kamonni g‘ijjak torlari ustida to‘g‘ri yurgizish bo‘yicha bir necha darslarni olib borish jarayonini misollar bilan, turli mashqlar hamda o‘zining shaxsiy mashqlari orqali ijro etish uslubini ko‘rsatgan. Shuningdek, texnik qismida ijro texnikasini rivojlantirish uchun major, minor gamma va uchtovushliklari, bir necha mashq va etyudlar keltiriladi. Darslikning badiiy qismida esa ellikka yaqin oddiy va murakkab shakldagi turli millat va o‘zbek milliy kuylari, shu jumladan kompozitor va bastakorlar ijodidan saralangan asarlar keltirilgan.

Mazkur darslik Bolalar musiqa va san’at maktabi o‘quvchilari hamda g‘ijjak sozini mustaqil o‘rganuvchilar uchun mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:
Oqilxon Ibrohimov
San’atshunoslik fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:
Sobirjon Jumayev
O‘zbekitson davlat san’at va madaniyat instituti
Cholg‘u ijrochiligi kafedrasi professori

Fayzulla Karimov
O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
Xalq cholg‘ularida ijrochilik kafedrasi dotsenti

ISBN 978-9910-9145-3-9

Mazkur darslik O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Ilmiy-metodik jamoatchilik respublika Kengashining yig‘ilishida muhokama qilindi va nashrga tavsiya etildi (7-sonli bayonnoma, 07.10.2023.).

© G‘.M.Xudoyev, 2024
© “JAVOHIR-ILM-NASHR”

KIRISH

1-DARS

G‘ijjak sozining qisqacha tarixidan

G‘ijjak cholg‘usi Markaziy Osiyo xalqlari, xususan o‘zbek, tojik, turkman, shuningdek, kavkaz, ozarbayjon hamda arman xalqlari orasida keng tarqalgan kamoncha bilan chalinadigan torli cholg‘u hisoblanadi. Ilk g‘ijjaklarning kosaxonasi qovoqdan va kokos yong‘og‘i (norjil yong‘oq) dan yasalgan bo‘lib, dastasining o‘rtasi kovak qilib o‘yilgan uzun yog‘ochdan ishlangan. Kosaxonaning ustiga pufak (molning yurak pardasi) yoki baliq teri qoplangan. Dastasi dumaloq bo‘lib, kosaga yaqinlashgan sari ingichkalashtirib ishlangan. Kosaga o‘rnatilgan temir oyoqchani ijrochi tizzasiga qo‘ygan holatda o‘tirib chalgan.

Ilk g‘ijjaklarda uchta tor bo‘lib, bular kvarta intervali bo‘yicha sozlangan. Sozlanishi muqim bir tovushda bo‘lmay, balki ashulachining ovoziga bobasta yoki ijro etiladigan kuyning xarakteriga qarab turlicha bo‘lgan. Shu davrlardagi g‘ijjaklar ovoz hajmi bir yarim oktava oralig‘ida bo‘lgan. XX asrning 20-yillariga kelib sozandalar g‘ijjak ovozini kengaytirish va baland qilish maqsadida unison qilib sozlangan qo‘shtorlardan foydalana boshladilar. G‘ijjak sozi yakka holda va ansambllarda keng foydalanila boshlangan. Kamonchasi ot dumidan ishlanib, chalish vaqtida o‘ng qo‘l barmoqlari bilan tortib turilgan[1]. 1930-yillarga kelib Ashot Ivanovich Petrosyans tomonidan o‘zbek cholg‘ulari takomillashtirilib, g‘ijjakka to‘rtta tor joriy qilindi[2]. Bular skripka singari kvinta intervali oralig‘ida joylashtirildi. Qayta ishlangan g‘ijjak dastasi dumaloq emas, balki, skripka dastasidek yassi qilib ishlangan. Oyoqchasi stulda o‘tirib chalish uchun qulaylashtirilgan[3]. Hozirgi musiqa istilohidagi g‘ijjak sozi xuddi shu zaylda foydalanib kelinmoqda.

O‘zbek xalq milliy cholg‘ulari orasida g‘ijjak sozi – o‘zining mungi, nolishi va inson tovushiga hamohangligi bilan xarakterlidir. Nafaqat, mumtoz kuy-qo‘shiqlarimiz, qolaversa, g‘ijjak cholg‘usida xalqimizning sho‘x navolari, Yevropa klassik kompozitorlarining kuy va qo‘shiqlarini ijro etibgina qolmay, balki turli qushlar va hayvonlar ovozini ham ifodalay olish mumkin.

Demak, bundan shuni anglash mumkinki, g‘ijjakning imkoniyatlari benihoya keng. Unda Toshkent-Farg‘ona yo‘lidagi maqomlarni, Xorazm maqomlarini, Buxoro Shashmaqomini butun dardu-nolalarini aks ettirish, o‘zbek hamda jahon kompozitor va bastakorlari tomonidan yaratilgan, o‘ta texnik imkoniyatlar talab qiladigan kuy va mashqlarni me’yoriga yetkazib ijro eta olish imkoniyatiga ega.

Hattoki, qushlarning sayrashi-yu, qo‘y va echkilarning ma’rashi, uy hayvonlarining o‘kirishi-yu, itning hurishi, mushukning miyovi, suvlarning

[1] I.Akbarov. Musiqa lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1997. 379-b.
[2] А.И.Петросянц. Инструментоведение. – T.: O‘qituvchi, 1980. 7 – 8-b.
[3] I.Akbarov. Musiqa lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1997. 380-b.

marjon qoyalarga urilib oqishlarigacha, qo‘ying-ki, butun qishloq va shahar ko‘chalarining to‘la ovozlarini aks ettirish mumkin.

G‘ijjak cholg‘usi o‘zining keng imkoniyatlari bilan boshqa cholg‘u sozlaridan farq qiladi.

Uning tovush hajmi (diapazoni): kichik oktava *sol* tovushidan 4-oktava *lya* tovushi qadar davom etadi.



Ushbu o‘quv qo‘llanmani besh qismga bo‘lib tadbiq etdik, unga ko‘ra: kirish qism (g‘ijjak sozi tarixidan qisqacha ma’lumotlar), nazariy qism, uslubiy qism (berilgan mashq va etyudlar tahlili), texnik qism, badiiy qismlardan tashkil topdi. Bunda joriy etilgan uslubiy ko‘rsatmalar bolalar musiqa va san’at maktabi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida g‘ijjak sozini o‘zlashtirishlari uchun qo‘l keladi degan umiddamiz.

Mazkur o‘quv qo‘llanmadan Bolalar musiqa va san’at maktab o‘quvchilari, madaniyat va san’at kollejlari hamda Oliy ta’lim muassasalari musiqiy ta’lim yo‘nalishi bakalavr talabalariga g‘ijjak cholg‘usini mustaqil o‘zlashtirishlarida qo‘l kelishi mumkin.

Darsni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Shovqinli tovushlar va musiqiy tovushlar haqida so‘zlab bering.
2. G‘ijjakning paydo bo‘lish tarixiga oid yana qanday ma’lumotlarga egasiz.
3. G‘ijjak sozining imkoniyatlari haqida nimalarni bilasiz?
4. G‘ijjakning ovoz kengligi (diapazoni) qancha?
5. O‘zbek milliy cholg‘ulari orasida g‘ijjak sozining o‘rni haqida gapirib bering.
6. An’anaviy g‘ijjak va akademik g‘ijjak ijrochiligi haqida nimalarni bilasiz?
7. G‘ijjak cholg‘usiga o‘xshash boshqa millat musiqa cholg‘ulari haqida nimalarni ayta olasiz?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Akbarov I.A. Musiqa lug‘ati. Qayta nashri. – T.: O‘qituvchi. 1997.
2. Кароматов Ф.М. Узбекская инструментальная музыка. – Т.: изд.им. Гафура Гуляма. 1972.
3. Odilov A. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi. – T.: O‘qituvchi. 1995. – 128 b.
4. Петросянц А.И. Инструментоведение. – Т.: O‘qituvchi. 1980.
5. Toshmuhammedov M. G‘ijjak darsligi. –T.: O‘qituvchi.1995.
6. Usmonov J. Yosh g‘ijjakchi. 2-kitob. –T.: O‘qituvchi.1997.
7. Xolmuhamedov O. G‘ijjak sinfi metodikasi. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1987.
8. Xudoyev G‘.M. G‘ijjak cholg‘usi ijrochilik an’analari. – T.: Muharrir. 2013. – 164 b.

2-DARS

NAZARIY QISM

Musiqa savodxonligini oshirish bo‘yicha ma’lumotlar.

Musiqadagi asosiy 5 ta chiziq:



(Tovushning balandligiga qarab, pastki va yuqorigi yordamchi chiziqlardan ham foydalaniladi)

Musiqadagi asosiy 7 tovushning skripka yoki sol kalitida joylashuv tartibi:



Tovushlarning ijro etilish cho‘zimi

Butun tovush 4 ham[4]ga qadar ijro etiladi.

Yarimtalik tovush 2 hamga qadar ijro etiladi

Choraktalik tovush 1 hamga qadar ijro etiladi

 Sakkiztalik tovush ikkitasi 1 hamga ijro etiladi

 O‘n oltitalik tovush to‘rttasi 1 hamga ijro etiladi

Skripka yoki sol kaliti

Ushbu kalitning gajagi (aylanmasi) sol tovushsi joylashgan nuqtadan boshlanganligi sababli sol kaliti yoki skripka kaliti deb nomlanadi.

[4] “**ham**” atamasi asosan tovush cho‘zimini ifodalashda foydalaniladi. Musiqiy amaliyotda rus tilida to‘rtta sakkiztalik tovush “1 i 2 i” (raz i dva i) shaklida ifodalansa, o‘zbek tilida “1 ham 2 ham” tarzida qo‘llaniladi.

Aksent, hissa, metr, o‘lchov, takt, takt chizig‘i, takt oldi (zatakt)

Musiqada tovushlar ma’lum bir vaqt davomida tashkil etiladi (eshitiladi). Tovushlarning ma’lum bir vaqtlarda teng hissalarga bo‘linib, almashib turishi musiqada bir tekis harakatlarni hosil qiladi (bunday harakatga pulsatsiya ham deyiladi). Tovushlarning ana shu harakati vaqtida ayrim hissalar urg‘usi ajralib turadi. Bu urg‘ularga **aksent** (zarb) deyiladi. Aksent tushadigan hissalar **kuchli hissalar** deyiladi. Aksent tushmaydigan hissalar **kuchsiz hissalar** deyiladi.

Kuchli va kuchsiz hissalarning tekis almashinib turishi **metr** deyiladi. Metr hissasi xilma-xil cho‘zimlarda ifodalanishi mumkin.

Metr hissasining ma’lum bir cho‘zimda ifodalanishi **o‘lchov** deyiladi.

O‘lchovlar tovush yozuvida ikkita raqam bilan yoziladi. Bu raqamlar birin-ketin yuqoridan pastga qo‘yilgan bo‘lib, skripka kalitidan so‘ng joylashtiriladi.



Ustki raqam metrdagi teng hissalar sonini, quyi raqam esa mazkur o‘lchovdagi metr hissasining qanday cho‘zimda ifodalanganligini bildiradi.

Musiqa asarining bir kuchli hissadan ikkinchi bir kuchli hissagacha bo‘lgan oralig‘i **takt** deyiladi[5].

Tovush yozuvida har bir takt tovush yo‘lini ko‘ndalang kesib o‘tgan vertikal chiziq bilan ajratiladi. Bu vertikal chiziqqa **takt chizig‘i** deyiladi.



Takt chizig‘i, odatda, takt oldi (zatakt)ni kuchli hissadan ajratib ko‘rsatish uchun qo‘yiladi.

Agar musiqa asari kuchsiz hissadan boshlansa, asar boshida to‘liq bo‘lmagan takt hosil bo‘lib, bunga **takt oldi**(zatakt) deyiladi. Takt oldi ko‘pchilik hollarda umumiy taktning yarmidan oshmaydi.



Takt oldi musiqa asari o‘rtasida, unga istalgan bir qismi boshlanishi oldida ham bo‘lishi mumkin.

Ko‘p hollarda takt oldi bilan boshlangan asar yoki uning biror qismi to‘liq bo‘lmagan takt bilan tugallanadi va u takt oldini to‘ldiradi. Asar oxirida uning biror qismidan so‘ng ikkita takt chizig‘i qo‘yiladi. Bu asarning ma’lum bir bo‘lagi yoki asar tugaganidan dalolat beradi.



[5] I.Akbarov. Musiqa lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1997-y., 280-b.

PAUZALAR

Musiqa asari ijrochiligida tinish va dam olish belgilariga **pauza** deb ataladi. Pauzalar tovush cho‘zimlari singari butun, yarimtalik, choraktalik, sakkiztalik, o‘n oltitalik kabi ko‘ri-nishlarga ega bo‘lib, tovush cho‘zimlaridan farqli o‘laroq ijro etilmay, balki o‘z nomiga munosib tovush cho‘zimida dam oladi.

Butun pauza

Butun pauza to‘rtinchi chiziqning ostida yoziladi, *to‘rt ham* mobaynida yoki butun tovush cho‘zimida dam oladi.

Yarimtalik pauza

Yarimtalik pauza uchinchi chiziqning ustida joylashadi, *ikki ham* mobaynida yoki yarimtalik tovush cho‘zimida dam oladi.

Choraktalik pauza

Choraktalik pauza *bir ham* mobaynida yoki choraktalik tovush cho‘zimida dam oladi.

Sakkiztalik pauza

Sakkiztalik pauza *bir* yoxud *ham*ga dam oladi, yoki sakkiztalik tovush cho‘zimida dam oladi.

O‘n oltitalik pauza

O‘n oltitalik pauza o‘n oltitalik tovush cho‘zimida dam oladi.

DINAMIK TUSLAR

Musiqa asarini ijro etishda tovush kuchini o‘zgartirish, uning badiiy ijrosiga erishish maqsadida foydalaniladigan turli ishora va ko‘rsatmalarga **dinamik tuslar** deb ataladi.

p *(piano)* – mayin, kuchsiz, yumshoq
pp *(pianissimo)* – juda mayin, juda kuchsiz
mp *(messo piano)* – kuchsizroq (*piano*dan kuchli, *forte*dan kuchsizroq)
f *(forte)* – qattiq, kuchli
ff *(fortissimo)* – juda qattiq, juda kuchli
mf *(messo forte)* – qattiqroq, kuchliroq
cr *(kreshchendo)* – tovushni tobora kuchaytirib borish
dim *(diminuendo)* – tovushni tobora kuchsizlantirib borish
sf *(sfortsando)* – ayrim tovushlarni to‘satdan kuchli ijro etish.

TEMP

Musiqa asarining ijro etilish sur’atiga **temp** deb ataladi. Templar asosan uch xil ko‘rinishda bo‘ladi: og‘ir templar, o‘rtacha templar va tez templar.

Og‘ir templar

Largo *(largo)* – juda vazmin, juda cho‘zib
Lento *(lento)* – vazmin, cho‘zib
Adajio *(adajio)* – og‘ir
Grave *(grave)* – juda og‘ir

O‘rtacha templar

Andante *(andante)* – shoshilmasdan, o‘rtacha og‘ir
Moderato *(moderato)* – o‘rtacha tez
Sostenuto *(sostenuto)* – salobatli
Allegretto *(allegretto)* – jonlanib

Tez templar

Allegro *(allegro)* – tez
Vivo *(vivo)* – jonli, chaqqon
Vivace *(vivache)* – jadal
Presto *(presto)* – tez, oshiqib
Prestissimo *(prestissimo)* – juda tez

INTERVALLAR

Ikki tovush oralig‘idagi masofa interval deb ataladi. Agar ijrochi interval tovushlarini birin-ketin ijro etsa – **melodik interval**, birdaniga (bir vaqtda) ijro etsa – **garmonik interval** deb ataladi.

Jami intervallar sakkizta bo‘lib, ular quyidagilardan iborat bo‘ladi: **prima, sekunda, tertsiya, kvarta, kvinta, seksta, septima, oktava.**



Mazkur intervallar tuzilishi va ijro etilishiga qarab turlicha (kat. – katta, kich. – kichik, sof, kam. – kamaytirilgan, ort. – orttirilgan) ko‘rinishlarda uchraydi:



Darsni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Musiqada asosiy nechta nota chiziqlari mavjud.
2. Skripka yoki sol kaliti haqida nimalarni bilasiz?
3. Musiqada yana qanday kalitlar haqida ma’lumotga egasiz?
4. Nota chiziqlarida tovushlarning joylashuvini aytib bering.
5. Tovushlarning cho‘zimi qanday bo‘ladi va ularni yozib bering?
6. “ham” atamasi nimani anglatadi?
7. Aksent, hissa, metr, o‘lchov, takt, takt chizig‘i, takt oldi haqida qanday ma’lumotlarga egasiz?
8. Musiqada qanday pauzalar bor ?,
9. Pauzalarga misollar keltiring.
10. Templar necha xilga bo‘linadi?
11. Templarni yoddan aytib berng.
12. Dinamik tuslar haqida gapirib bering.
13. Intervallar haqida so‘zlab bering.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Akbarov I.A. Musiqa lug‘ati. Qayta nashri. – T.: O‘qituvchi. 1997.
2. Liviyev A. Xalq cholg‘u asboblari ansambli uchun p’yesalar. – T.: O‘qituvchi.1974.
3. Odilov A. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi. – T.: O‘qituvchi. 1995.
4. Reyder I.X. Yosh sripkachi uchun etyud va mashqlar. – T.: O‘qituvchi. 1967.
5. Toshmuhammedov M. G‘ijjak darsligi. –T.: O‘qituvchi.1995.
6. Usmonov J. Yosh g‘ijjakchi. 1-kitob. – T.: O‘qituvchi.1995.
7. Xolmuhamedov O.M. G‘ijjak sinfi metodikasi. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1987.
8. Xudoyev G‘.M. Boshlang‘ich g‘ijjak saboqlari. (1-kitob). Bolalar musiqa va san’at maktablari uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot. 2015.
9. Xudoyev G‘.M. G‘ijjak cholg‘usi ijrochilik an’analari. – T.: Muharrir. 2014.

METODIK QISM

3-DARS

G‘ijjak cholg‘usining tuzilishi



Yuqorida keltirilgan musiqiy savod ko‘nikmalarini o‘zlashtirish bilan birgalikda g‘ijjak cholg‘usi bilan tanishishni boshlaymiz.

G‘ijjak cholg‘u sozining boshqa sozlar singari qator qismlardan tashkil topganini ko‘rib turibmiz. Buni birma-bir qismlarga ajratib o‘rganamiz:

I. Yuqori qism(bosh qism)da to‘rt simni ushlab turish va sozlash uchun quloqlar joylashadi.

I.1. Undan pastda simlarni me’yorida ushlab turish uchun kichkina xarrakcha, yoki shayton xarrak joylashadi.

II. Dasta qismi

Simlarni barmoq bilan bosib chalinadigan qismi **dasta** deyiladi. U asosan o‘rik yoki yong‘oq daraxtidan yasaladi va kosaxonaga ulanadi. Gijjakning yuqori qismdan dastaning usti bilan kosaxonaga tegib turgan joyigacha (4-5 santimetr qolgancha) yassi, silliq grif joylashadi. Shu grifning ustidan g‘ijjak cholg‘usining to‘rtta simi kesib o‘tadi. Simlar ustida barmoqlar harakatlantirilib musiqiy ovoz hosil qilinadi.

II.1. Birinchi eng ingichka sim *“Mi”* deb nomlanadi, ikkinchi oktavaning mi tovushi balandligini bildiradi:



II.2. Ikkinchi sim *“Lya”* deb nomlanadi birinchi oktavaning lya tovushi balandligini bildiradi:



II.3. Uchinchi (yo‘g‘on) sim “*Re*” deb nomlanadi birinchi oktavaning re tovushi balandligini bildiradi:



II.4. To‘rtinchi (pastki, eng yo‘g‘on) sim “*Sol*” deb nomlanadi kichik oktavaning sol tovushi balandligini bildiradi:



III. Dasta va kosaxona ulangan qism. Grifning tugagan joyidan toki xarrakkacha bo‘lgan maxsus oraliqda kamon harakatlanadi.

IV. Kosaxona qismi. U aylana shaklda, g‘ovak qilib ishlangan.

IV.1. Kosaxona ustiga baliq terisi qoplanadi.

IV.2. Teri ustida to‘rt simni me’yorida ushlab turish uchun –“xarrak” joylashgan bo‘lib, uni dastaga yaqin joyda joylashtiriladi.

V. Kosaxonaning pastki qismida to‘rt simni ushlab turish uchun ilgaklar joylashtiriladi.

V.1. G‘ijjakni oyoqda ushlab turish uchun – metal moslama biriktirilgan.

Kamon (smichok)

Endi shu tartibda kamonning tuzilishi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz:



Kamonning asosiy qismi qattiq yog‘ochdan tayyorlangan bo‘lib, ingichka, uzunligi 50 smdan 70 smgacha bo‘lgan, uchi ilgak shaklida tayyorlangan qattiq yog‘och (1) ni tashkil qiladi. Yog‘ochning pastki qismi 5-7 santimetrgacha o‘yilgan bo‘lib, utski qismiga ilgich tomonga to‘g‘rilab qattiq yelim yoki juda qattiq yog‘och (2) mahsulotidan maxsus moslama o‘rnatiladi.

Bu moslama orqaga-oldingga (o‘ngga-chapga) harakatlantirish uchun kamonning pastki g‘ovak qismidan rezbalik metall (3) moslama (mexanizm) joylashadi. Kamon uchidagi yarim ilgak hamda kamonning past qismidagi yelim moslamaga otning yolidan (dumidan) tayyorlangan o‘ram (4) joylashtiriladi. Bu kamonning yoli hisoblanib, kuyning texnik holatiga qarab, pastki metal moslamada tarang va sust holatga keltiriladi.

Har 4-5 soatlik mashqdan so‘ng kamon yolini kanifol yordamida oqartirib turishlik tavsiya etiladi.

Darsni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. G‘ijjak sozining tuzilishi haqida gapirib bering.
2. G‘ijjak qanday qismlardan tashkil topadi ?
3. G‘ijjak sozining to‘rtta simlari qaysi balandliklarda sozlanadi ?
4. Kamonning tuzilishi haqida so‘zlab bering.
5. Kamon qanday qismlardan tashkil topadi?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Akbarov I.A. Musiqa lug‘ati. Qayta nashri. – T.: O‘qituvchi. 1997.
2. Бакланова Н.В. Первые уроки пособые для начального обучения игре на скрипке. – М.: Советский композитор. 1989.
3. Reyder I.X. Yosh sripkachi uchun etyud va mashqlar. – T.: O‘qituvchi. 1967.
4. Xudoyev G‘.M. G‘ijjak cholg‘usi ijrochilik an’analari. – T.: Muharrir. 2013.

4-DARS

G‘IJJAK CHOLG‘USIDA IJRO ETISH HOLATI

(stulda to‘g‘ri o‘tirish va kamonni to‘g‘ri ushlash)

Endi yuqorida keltirilgan musiqiy ko‘nikmalarga tayangan holda yosh o‘quvchi bilan g‘ijjak cholg‘u sozida ijro etish sir asrorlarini o‘rganib boshlaymiz.

Avvalambor o‘quvchining yoshiga va bo‘yiga mos ravishda stul tanlaymiz, chunki o‘quvchining tizzasi qiya tekis holatda bukilishi va undan g‘ijjak cholg‘usi tushib ketmaydigan holatda joylashishi shart. Shunda o‘quvchida erkin harakat qilish ko‘nikmalari hosil bo‘ladi.

G‘ijjak ijrochiligida chap va o‘ng qo‘llarning ahamiyati juda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa o‘ng qo‘lda kamonni bir tekisda, to‘g‘ri va erkin ushlash. Kamonni ravon harakatlantirganda – kistni chiroyli ishlatishga erishish, simdan simga ko‘chadigan holatlarda shoshilmasdan, bir tor ikkinchi torga halal bermasdan, aniq ko‘chish va yoqimli ohang talab qilinadi. Bizga kuyning toza va chiroyli yangrashini ta’minlovchi – chap qo‘l sanaladi. Chap qo‘lni g‘ijjak dastasida to‘g‘ri ushlash. Chap qo‘l barmoqlarini torlar ustida o‘z o‘rniga aniq va erkin bosish natijada g‘ijjakdan yoqimli va dardli ijroning yangrashini ta’minlaydi.

O‘ng qo‘lda kamonni to‘g‘ri ushlash qoidasi

Endi o‘ng qo‘l bilan smichokni ya’ni kamonni ko‘rsatilgan holatda ushlab, cholg‘u sozining to‘rt simida, ya’ni ochiq simlarda kamonni yo‘naltira boshlaymiz. Oldin 2 yo‘g‘on simda qator mashqlar bajaramiz. Mashqlar 2/4 va 4/4 o‘lchovida bo‘lib ular butun, yarimtalik, choraktalik, sakkiztalik tovushlarda iborat bo‘ladi.

Sol va Re simlariga o‘tish mashqlarini bajaramiz. O‘quvchini qo‘llari va kist qismlari bu paytda risoladagidek deyarli ishlamaydi, shuning uchun o‘quvchini toliqtirib qo‘ymaslik uchun unga tez-tez dam berib, o‘quvchiga o‘zimiz g‘ijjak cholg‘u sozida texnik kuylar va mumtoz kuylardan namunalar ijro etib beramiz. O‘quvchi biroz tinim va dam olgach, yana oldingi mashqimizni davom ettirib, endi lya va mi simlarida ham kamon bilan ochiq simlarda butun, yarimtalik, choraktalik tovushlar cho‘zimida kamonni o‘ngga va chapga yo‘naltira boshlaymiz. Bu mashqimizda to‘rt sim ham ishtirok etayotganligi uchun biroz murakkabroq tuyilishi aniq, shu sababli qo‘l toliqib kamonni noto‘g‘ri ushlab qolishi mumkin, bu holat o‘qituvchidan jiddiy nazoratni talab qiladi. O‘quvchini diqqat bilan kuzatib: uning o‘ng qo‘li toliqib qolganda kamon ushlash biroz egri bo‘lib boshlaydi, buni o‘qituvchi tuzatib turishi shart. Endi o‘quvchiga mustaqil tayrlanishi uchun 8 takt yoki 16 taktdan ko‘p bo‘lmagan ochiq simlarda ijro etilgan kuylarni yoki mashqlarni topshiriq qilib beramiz va birinchi sabog‘imizga yakun yasaymiz.

Mustaqil tayyorlash uchun topshiriq



Kamonni yo‘naltirishda ham shartli belgilardan foydalaniladi, yuqorida keltirilgan mashqda: kamonni butun tovushlarda pastga va yuqoriga ijro etish tavsiya etilmoqda.

П - kamonni pastga ijro etish (yoki o‘ng tomonga harakatlantirish)

V - kamonni yuqoriga ijro etish (yoki chap tomonga haraklantirish)

Ushbu ijroda kamon to‘liqligicha yo‘naltirilib, har bir berilgan ochiq simdagi tovushlarda kamon aniq va tekis oxirigacha harakatlanadi hamda toza va ravon tovush yangrashiga erishiladi. Ayniqsa kamonni simdan – simga ko‘chish harakatlari o‘quvchidan o‘ta ehtiyotkorlikni talab qiladi.

1-mashqimizda yana bir belgi: repriza, ya’ni takrorlash belgisi haqida ma’lumotga ega bo‘lamiz.

Repriza – ma’lum bir kuyning bo‘lagini hech qanday o‘zgarishsiz takroriy ijro etish:



Bunda butun tovushlarda keltirilgan mashqlar o‘quvchiga ancha yengilroq kechadi. Sababi: kamonni boshidan-oxiriga, ya’ni 4 ham mobaynida cho‘zib, so‘ngra keyingi ochiq simdagi butun tovush ijrosiga o‘tiladi, yuqorida keltirilgan 1-mashq o‘quvchidan unchalik murakkablikni talab qilmaydi.

Oldingi sabog‘imizda o‘tgan g‘ijjakni to‘g‘ri ushlash, stulda to‘g‘ri o‘tirish, kamon(smichok)ni to‘g‘ri ushlash qoidalariga rioya qilgan holda keyingi darsimizni boshlaymiz. Ochiq simlarda ijro etiladigan oldingi darsimizdagi 1-mashqlarimizga hamohanglikda quyidagi etyudni keltiramiz:



Yuqorida keltirilgan etyud o‘quvchi ijrosida bo‘lib, undan unchalik katta mahorat talab qilmaydi, faqatgina uchta sol, re, lya torlarida kamonni to‘g‘ri yo‘naltirish buni o‘qituvchi tomonidan o‘z vaqtida nazorat qilib turishlik talab qilinadi. Chunki o‘quvchida o‘ng qo‘li hali kamonni to‘g‘ri yo‘naltirish imkoniyati pastroq bo‘lishi tabiiy, o‘quvchining o‘ng qo‘li charchab kamonni noto‘g‘ri ushlashi yoki noto‘g‘ri yo‘naltirishi mumkin. Buni o‘qituvchi o‘z vaqtida tuzatib turishligi tavsiya etiladi.

Keyingi keladigan mashqi(2)miz ochiq simlarda yarimtalik va butun tovushlarning almashib kelishi va kamonni simdan simga ko‘chishi:



Bu mashqimizda kelayotgan yarimtalik tovushlarda kamonni harakatlantirish butun tovushlarga nisbatan sal tezroq, sanoqga qarab tortiladi. Va kamonning simdan-simga ko‘chib kelishida ham o‘quvchidan ehtiyotkorlikni talab qiladi.

Birinchi taktdagi ochiq torda mi yarimtalik tovushlarining ijrosida – kamonni ushlab turgan o‘ng qo‘limiz (nisbatan) oldinroqqa chiqadi. Ikkinchi taktdagi lya ochiq tor yarimtalik tovushlarning ijrosida kamon nisbatan orqaroq olinib, re toriga tegib ketmaslik uchun o‘qituvchi va o‘quvchidan o‘ta ehtiyotkorlik talab qilinadi.

Uchinchi taktdagi re torining ijrosidagi 2 ta yarimtalik tovushlarda kamonni harakatlantirish uchun o‘ng qo‘limiz nisbatan orqaroqqa olib ijro etiladi. Re va lya torlari o‘rta simlar bo‘lganligi sababli (bir-biriga) ijro vaqtida kamon keyingi torga tegib ketish ehtimoli bo‘lishi mumkin, shuning uchun, har bir tordagi berilgan yarimtalik tovushlarga diqqat qilib, alohida – alohida ijro etishlik talab qilinadi. To‘rtinchi taktdagi ochiq Sol yarimtalik tovushlarining ijrosida g‘ijjak cholg‘umizni chap tomonga salgina buramiz. Shunday qilib kamon to‘la **sol** torining ustida harakatlana boshlaydi va kamonni ochiq **sol** torining ustida aniq-ravon ijrosiga erishiladi. Bunda re torining ham hech qanday ta`siri bo‘lmaydi.

2-mashqning 1-jumlasidagi to‘rtta taktning har biri reprizaga asoslanib takror ijro etiladi. 1-jumlaning 5,6,7 va 8-taktlarda ochiq **mi** torining o‘zida yarimtalik va butun tovushlar almashib keladi va repriza yordamida ushbu to‘rt takt yana takrorlanadi. 1-jumladan farqli o‘laroq, 2-jumlada taktma-takt emas, balki oldingi to‘rt takt takrorlanadi va keyingi to‘rt takt ham reprizaga uchrab alohida takrorlanadi.

Uchinchi jumlada, oldingi 4 takt sol butun va yarimtalik tovushlardan iborat bo‘lib, ochiq – eng yo‘g‘on **sol** simida ijro etiladi, repriza yordamida ushbu to‘rtta takt takrorlanadi. Uchinchi jumlaning 5,6,7 va 8-taktlarida kamon ochiq **re** simiga ko‘chadi, butun va yarimtalik tovushlar yozilganday ijro etilib ushbu 4 ta takt ham takrorlanadi.

Har bir mashq, etyud yoki kuyni chaldirish davomida, uni ovoz bilan sanab ijro ettirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Masalan**:** bir ham ikki ham, uch ham to‘rt ham tarzida sanaladi.

Yuqorida ko‘rsatilgan tartibda mashqni ijro qilib kelishini ta’kidlab sabog‘imizga yakun yasaymiz va mustaqil topshiriq qilib quyidagilarni topshiramiz:

Mustaqil tayyorlash uchun topshiriq

Oldingi darslarimizda o‘tilgan 1- va 2- mashqlarni ko‘rsatilgandek ijro etish, stulda to‘g‘ri o‘tirish, kamonni to‘g‘ri ushlash va tekis harakatlantirish qoidalariga to‘la rioya qilish. Butun, yarimtalik va choraktalik tovushlar ishtirok etgan, xohlagan 2 ta kuyni sanab kelish[6]:



Yuqorida keltirilayotgan etyud “sanashni” yaxshi shakllantirish uchun nazarda tutilib keltirildi. Ushbu etyudni o‘quvchi qiynalmasdan sanashi uchun kichik izoh keltiramiz. Demak, etyud C (bu o‘lchov cho‘zimi 4/4 o‘lchovga teng) o‘lchovda yozilgan bo‘lib har bir taktning oralig‘i to‘rt hamga sanaladi. 1-taktda 4 ta choraktalik tovush ishtirok etgan bo‘lsa, 2 taktda esa 2 ta yarimtalik tovush taktni to‘ldirib turibdi. Toki oxirgi taktgacha choraktalik va yarimtalik tovushlar taktma-takt almashib keladi, nihoyat oxirgi taktda butun **lya** tovushsida tugaydi. Ularning sanog‘i esa oldingi darslarimizdagi nazariy bilimlarga asoslanib sanaladi (sanalish tartibi tovushlar ostida yozib ko‘rsatildi). Yuqorida sanash uchun keltirilgan etyudda alteratsiya belgilaridan diyez alomati ishtirok etmoqda, shu sababli alteratsiya belgilari haqida tushunchaga ega bo‘lamiz.

Alteratsiya belgilari

Alteratsiya belgilari deb, musiqa asarini ijro qilishda tovushni yarim tonga ko‘tarish, tushirish yoki o‘z holiga qaytarish alomatlariga aytiladi.

♯ **- Diyez** tovushni yarim ton ko‘tarish uchun ishlatiladi.

♭ **- Bemol** tovushni yarim ton tushirish uchun ishlatiladi

♮ **- Bekar** ko‘tarilgan yoki tushirilgan tovushni o‘z holiga qaytarib bekor qilish uchun ishlatiladi**.**

Darsni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Kamonni harakatlantirishda **П** va **V** nimani ifodalaydi?
2. G‘ijjak sozida to‘g‘ri ijro etish, kamonni to‘g‘ri ushlash qoidalarini ko‘rsatib bering.
3. 1-mashqni solfedjio qilib kuylab bering.
4. 2/4 o‘lchovining sxemasi haqida ma’lumotga egamisiz.
5. 4/4 o‘lchovini ko‘rsatib bering?
6. Repriza haqida so‘zlab bering.

Uchinchi darsda berilgan etyudni solfedjio qilib kuylab bering.

[6] Tovushning ostida raqamlardan so‘ng berilayotgan “**h**” harfi “**ham**”ning qisqartmasi.

7. Darsda berilgan 2-mashqni solfedjio qilib kuylang.

8. Mustaqil tayyorlash uchun topshiriqda berilgan etyudni solfedjio qilib kuylab bering.

9. Darsdan tashqari 2/4 va 4/4/ o‘lchovlarda yozilgan boshqa asarlarni olib mustaqil sanashni o‘rganing.

10. Alteratsiya belgilari haqida gapirib bering.

11. Alteratsiya belgilari haqida qo‘shimcha nimalarni bilasiz?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Akbarov I.A. Musiqa lug‘ati. Qayta nashri. – T.: O‘qituvchi. 1997.
2. Григорян А. Начальная школа игры на скрыпке. – М., 1986.
3. Кароматов Ф.М. Узбекская инструментальная музыка. – Т.: изд.им. Гафура Гуляма. 1972.
4. Liviyev A. Xalq cholg‘u asboblari ansambli uchun p’yesalar. – T.: O‘qituvchi.1974.
5. Odilov A. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi. – T.: O‘qituvchi. 1995.
6. Reyder I.X. Yosh sripkachi uchun etyud va mashqlar. – T.: O‘qituvchi. 1967.
7. Toshmuhammedov M. G‘ijjak darsligi. –T.: O‘qituvchi.1995.
8. Usmonov J. Yosh g‘ijjakchi. 1-kitob. – T.: O‘qituvchi.1995.

5-DARS

TO‘RTTA TORDA BARMOQLARNING TOVUSHLAR USTIDA JOYLASHUVI

Oldingi darslarimizda o‘tilgan bilim va ko‘nikmalarga tayangan holda navbatdagi darsimizni boshlaymiz. Ochiq simlarda berilgan mashq va etyudlar bir-bir ijro etiladi. Ularning qanchalik to‘g‘ri va aniqligi o‘qituvchi tomonidan nazorat qilib boriladi. Uyga berilgan nazariy topshiriqlar ham ko‘zdan kechiriladi. Endi o‘quvchi g‘ijjak cholg‘usida kamonni-ochiq simlar ustida ancha aniq va ravon harakatlantira boshlaydi. Atsa-sekinlik bilan o‘quvchining chap qo‘l barmoqlari harakatiga e’tiborimizni qaratsak ham bo‘ladi. Endi nafaqat ochiq simlar balki, barmoqlar bilan simlarni bosib aniq tovushlar chiqarish ustida turli mashq, etyud va kuylar ijro etishga erishish lozim bo‘ladi. Endi biz chap qo‘l barmoqlari yordamida, to‘rt simdan tovush hosil qilish yo‘llari ustida ish olib boramiz. To‘rtta torda barmoqlar joylashuviga doir jadvalni keltirishdan oldin, ushbu tovushlarni tovush yo‘lidagi joylashuvini keltiramiz (Bu birinchi pozitsiya hisoblanadi).



To‘rtta torda barmoqlarning tovushlar ustida joylashuv jadvali (I pozitsiya)

1-jadval:

Sol tori	Re tori	Lya tori	Mi tori
0	0	0	0
1 lya	1 mi	1 si	1 fa
2 si	2 fa	2 do	2 sol
3 do	3 sol	3 re	3 lya
4 re	4 lya	4 mi	4 si

0- Ochiq simdagi ijro
1- Birinchi barmoq bilan ijro
2- Ikkinchi barmoq bilan ijro
3- Uchinchi barmoq bilan ijro
4- To‘rtinchi barmoq bilan ijro

Endi xuddi shu jadvalni barcha yondosh tovushlari bilan birgalikda qay tarzda joylashuvini 2-jadvalda keltiramiz:

2-jadval:



Yuqorida keltirilgan jadvallar yosh g‘ijjakchi uchun biroz murakkabroq bo‘lishiga qaramasdan bunda talaygina ma’lumotlar mujassam. Yuqorida keltirilgan 1-jadvalda har bir simning ustida keluvchi tovushlar tartib bilan, barmoqlar ketma-ketligida sxema tarzida aks etgan (2-jadvalda esa yuqorida ta’kidlaganimizdek, yondosh tovushlar joylashuvi aks etgan, bu jadvalga doir mashq va etyudlarimizni gammalar ijrosidan keyingi bandlarimizda berib boramiz). Bu sxemani o‘quvchi yodlab olib takror-takror ijro etaversa: o‘ng qo‘lda kamonning harakati, ya’ni simdan-simga ko‘chishi ancha faollashadi, bir sim ikkinchi simga xalal bermaydi va chap qo‘lda barmoqlarning harakati ancha rivojlanadi, atsa-sekinlik bilan barmoqlar aniq, muqim tovushni ijro etishligiga o‘quvchida ko‘nikma hosil bo‘ladi.

Mazkur darsimiz davomida barcha barmoqlar harakatiga doir qator mashq va etyudlar keltiramiz.

Yarimtalik tovushlar va yondosh tovushlar ijrosida ochiq tor va birinchi barmoq harakatiga doir mashqni keltiramiz (bunda ijro etilayotgan yondosh tovushlar o‘quvchi uchun yangilik sanaladi, shu sabab uni fortepiano sozida aniqligini kuzatib borish talab qilinadi):

3-mashq



Endigi mashqda butun va yarimtalik tovushlar hamda yondosh tovushlar ishtirokida; ochiq tor, birinchi va ikkinchi barmoq harakatiga doir mashqni keltiramiz:



Keyingi berilayotgan mashqimizda butun tovush, yarimtalik tovush va choraktalik tovushlar hamda yondosh tovushlar ijrosida ochiq tor, birinchi, ikkinchi va uchinchi barmoqlar harakatiga doir mashqni keltiramiz: bunda yondosh tovushlarni aniq va chiroyli ijrosiga erishish, har bir o‘qituvchidan o‘quvchi ijrosiga fortepiano bilan birgalikda ijro qilib o‘ta kuchli nazoratni talab qiladi. Chunki yondosh tovushlar o‘quvchi uchun biroz qiyinchiliklar tug‘dirishi ehtimoldan xoli emas. Har bir ijro qilinayotgan yondosh tovush fortepiano bilan tuzatib borilsa, o‘quvchida tovushlarni aniq va ravon ijro qilish ko‘nikmasi hosil bo‘lib, tovushlarning toza ohangdorligiga erishiladi.



Endi barcha barmoqlarni torlar ustidagi harakatiga doir mashqni keltiramiz:



Darsimizga yakun yasab, yuqorida keltirilgan amaliy va nazariy bilimlarimizni chuqurlashtirish asnosida bir etyudni mustaqil ijro qilib kelish uchun topshiramiz.

Mustaqil topshiriq

Mazkur etyudda choraktalik va yarimtalik tovushlarni kamon bilan to‘g‘ri taqsimlab torlar ustida to‘liq harakatlantirish talab etiladi:



Darsni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Berilgan etyud va mashqlarni solfedjio qilib kuylab bering.
2. Birinchi pozitsiyada barmoqlar harakatini kamonsiz torlar ustida g‘ijjakda ovoz chiqarmasdan harakat qildiring.
3. O‘ng qo‘l bo‘g‘imi(kist)ni kamon yordamida ravon harakatlanishga o‘rgating.
4. 1- va 2-jadvaldan siz nimani tushundingiz?
